

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN O‘QITISH TEXNOLOGIYALARNI TARBIYA FANIDA AMALDA QO‘LLASH

Ergashev Abdujalil

Toshkent davlat pedagogika universiteti Ijtimoiy fanlarni o‘qitish metodikasi
(ma’naviyat asoslari) mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Аннотация:

В данной статье делается вывод о том, что личностно-ориентированная технология обучения является фактором применения современных технологий обучения, делающих процесс обучения унифицированным и достигающим высокой эффективности. Теперь о том, почему персональные технологии становятся актуальными сегодня, почему за этими технологиями сегодня и будущее образования и раскрыта их суть.

Ключевые слова: традиционное образование, личность, индивидуальное обучение, познавательная деятельность, национальная модель обучения, малые группы, взаимное сотрудничество.

An’anaviy ta’lim falsafasida shaxsni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik modellari tashqi o‘rnatilgan modellar, idrok me’yorlari (kognitiv faoliyat) shaklida tavsiflangan bo‘lsa, u holda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talabning sub’ektiv tajribasining o‘ziga xosligini, individual hayotning muhim manbai sifatida tan olinishidan kelib chiqadi, xususan, bilimda. Shunday qilib, ta’lim nafaqat bolaning berilgan pedagogik ta’sirlarni interiorizatsiyasi, balki berilgan va sub’ektiv tajribaning “uchrashuvi”, ikkinchisining o‘ziga xos “uyg‘unlashuvi”, uning boyishi, ortishi, o‘zgarishi, bu individual rivojlanish “vektori” ni tashkil qilishi tan olinadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasi o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo‘llash, o‘qitish jarayonini yagona shaklga keltirish va yuqori samaradorlikka erishishga imkon yaratadi. Endi shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarning nima uchun bugungi kunda dolzarb bo‘lib borayotganligi, nima uchun mazkur texnologiyalar ta’limning hozirgi kuni, kelajagi bo‘lib qolganligi hamda ularning mohiyati haqida qisqacha to‘xtalamiz.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasi o‘qitishning afzalligini anglash uchun uning an’anaviy ta’lim usullaridan farqlash lozim. An’anaviy o‘qitish texnologiyasining bugungi kun talablariga javob beraolmasligi xususida Birinchi



Prezident Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida (1997 yil 29 avgust) bolalar qaysi sinfdan boshlab mustaqil fikr yurita boshlaydi? Umuman maktabda mustaqil fikr yuritishga o‘rgatiladimi? degan savollarni qo‘ydilar va ularga quyidagicha javob berdilar: «Aminmanki, o‘rgatilmaydi. Mobodo biror o‘quvchi o‘qituvchiga e’tiroz bildirsa, ertaga u hech kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktabdagi jarayonda o‘qituvchi hukmron. U boladan faqat o‘zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Prinsip ham tayyor: «Mening aytganim-aytgan, deganim-degan» [1]. Demak, an’anaviy ta’lim texnologiyasida o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatida majburiy itoatkorlik, ya’ni zo‘ravonlik pedagogikasi amal qiladi». Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, zo‘ravonlikka asoslangan bu pedagogikada pedagog yagona sub’ekt, o‘quvchilar pedagogik jarayon ob’ekti, o‘qitish tushuntiruv-ko‘rgazmali usulda olib boriladi. O‘qitish ommaviy tarzda olib borilishi tufayli o‘quvchilarning tashabbusi va mustaqilligi o‘zidan-o‘zi so‘nib boraveradi. Shu bois texnologiya asosan o‘quvchilarda bilim, ko‘nikmalarni shakllantiradi, ular shaxsini rivojlantirishni ko‘zda tutmaydi.

Mazkur o‘qitish texnologiyasida pedagogikaning o‘quvchiga munosabati avtoritar xarakterga ega, ya’ni ta’lim jarayonida u yagona sub’ekt sifatida namoyon bo‘ladi, o‘quvchilar esa faqatgina ob’ekt vazifasini bajaradi, xolos. Boshqacha qilib aytganda avtoritar o‘qitish texnologiyasida o‘quvchining tashabbusi va mustaqilligi deyarli yo‘qoladi, o‘qitish majburiy yo‘sinda amalga oshiriladi. Hanuzgacha jahonda eng ko‘p tarqalgan o‘qitishning sinf-dars tizimida mashg‘ulotlari asosiy birligi dars bo‘lib, u bitta fanining bitta mavzusiga bag‘ishlanadi va o‘qituvchi tomonidan boshqariladi.

O‘z-o‘zidan ko‘rinadiki, an’anaviy o‘qitish texnologiyasi o‘z tabiatiga ko‘ra ta’lim muassasalari oldiga jamiyatimiz tomonidan qo‘yilgan talablarga butunlay javob bermaydi. Bundan farqli o‘laroq shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarda o‘quvchi ta’limning milliy modeli mohiyatiga ko‘ra pedagogik jarayon markaziga qo‘yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratib beriladi. Ta’limning milliy modelini – shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarishdan iborat 5 ta tarkibiy qismida «shaxs» asosiy tarkibiy qism – birinchi o‘rinda turadi [2]. Boshqacha aytganda, butun ta’lim tizimi, shu jumladan o‘qitish o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning muammoli ta’lim, modul ta’limi dasturiy ta’lim, rivojlantiruvchi ta’lim, o‘yin texnologiyalari, interfaol ta’lim, hamkorlik ta’limi,



tabaqlashtirilgan ta'lim, individual ta'lim, masaofaviy ta'lim, mustaqil ta'lim va innovatsiya ta'lim kabi turlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyundagi 422-son qaroriga asosan Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari" hamda "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan holda yagona "Tarbiya" fani 1 – 9-sinflarda – 2020/2021 o'quv yilidan, 10 – 11-sinflarda esa – 2021/2022 o'quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma – bosqich amaliyotga joriy etish [3] masalasi muhokama etilib, Tarbiya fani umumta'lim maktablarining DTS va o'quv rejalarida o'z aksini topdi.

Shaxs qator ijtimoiy fanlar, xususan, falsafa, psixologiya va sotsiologiya va 2020 yildan boshlab Tarbiya fanlarining o'rganish ob'ektidir. Falsafa shaxsni uning ijtimoiy ahvoli, faoliyati, bilish, ijod sub'ekti sifatida qarab chiqadi. Psixologiya shaxsni psixik holatlar, psixologik xususiyatlar, ijtimoiy-psixologik munosabatlar, shaxsning temperamenti, fe'l-atvori, qobiliyati, irodaviy fazilatlari va hokazolarning uyg'unligi asosida o'rganadi. Sotsiologiyada shaxsning jamiyatdagi o'rni turli ijtimoiy so'rovlar asosida ijtimoiy guruhlar, stratifikatsiyalar, steriotiplar, etnik birliklarda shaxning mavqei belgilanadi. Tarbiya fani o'qitish jarayonida shaxsga yangicha yondoshuv quyidagilardan iborat bo'ladi: pedagogik jarayonda shaxs ob'ekt emas, sub'ekt hisoblanib, har bir o'quvchi qobiliyat egasi, ko'pchiligi esa iste'dod egasi sifatida qaralib, yuqori axloqiy qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar)ni ustuvor xislatlarni o'zida mujassamlashtirgandagina ta'lim sub'ektlarini shaxs sifatida ifodalaydi.

Tarbiya darslarida guruh hamkorligiga asoslangan dars mashg'ulotlari turli darajadagi samaradorlikka olib keluvchi noan'anaviy mashg'ulot turi hisoblanadi.

Kichik guruhlar bilan ishlashda guruh 6 yoki 8 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi.

O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi ham mumkin.



O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda asosiy e'tibor o'zaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratiladi, o'qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilinadi.

O'zaro hamkorlikning muhim omili va o'quvchilarning o'zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorligining shakllaridir. Hamkorlikdagi o'quv faoliyati o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining va birgalikdagi xatti-harakatlarining alohida turidirki, u o'zlashtirish ob'ektini, bilim faoliyatining barcha qismlarini qayta qurishni ta'minlaydi.

Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli o'quvchilar ilgari surgan yangi g'oyalar va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir.

Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak. Bunday xatti-harakat o'qituvchining o'quvchiga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi;

O'quvchilarning faolligi asta-sekin o'sib borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi; o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi munosabata esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda jahon ta'lim sohasiga kirib borishga mo'ljallangan yangi ta'lim tizimining shakllanish jarayoni hisoblanadi. Ushbu davr o'quv-tarbiya jarayonining pedagogik nazariya va amaliyotida jiddiy o'zgarishlar bilan kechmoqda: o'qitishning mazmuni o'zgaryapti, bilim berish jarayoniga boshqa yondashuv taklif etilyapti, boshqacha munosabatlar va o'zini tutish tamoyillari shakllanyapti [4]. Bularning barchasini bizning davrimiz – XXI asr – yangi texnologiyalar va insonlar o'rtasidagi yangicha munosabatlar tizimini taqozo etmoqda.

Tarbiya fanida shaxsga yo'naltirgan ta'lim texnologiyalarida o'qituvchi quyidagi mezonlarga amal qilish lozim: boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon bersagina samaradorlikka erishadi.

Bugungi globallashuv jarayonida axborotning hajmi, xilma-xilligi va vositalarining yetarliligi samarali individual va mustaqil o'qitishni tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish imkoniyati vujudga keldi. Tarbiya fanida o'qitishni



jadallashtirish maqsadida, pedagogning o'quvchiga bo'lgan munosabati «sardor»likdan, «sherik»likga aylanishi zarur.

Bizning fikrimizcha Tarbiya fanini o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar quyidagi asosiy tamoyillar tayanishi lozim bo'ladi:

insonparvarlik, ya'ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko'rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo'rlashdan to'la voz kechish;

hamkorlik, ya'ni pedagog va o'quvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;

erkin tarbiyalash, ya'ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta'sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi – pedagogik jarayonda o'quvchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi.

Shaxsiy yo'naltirilgan ta'lim - bu shunday o'rganishdir, bu yerda bolaning shaxsiyati, uning o'ziga xosligi, ichki hissiyoti va qadr-qimmatini, har birining o'quvchining individual tajribasi avval ochib beriladi, so'ngra ta'lim mazmuni bilan muvofiqlashtiriladi.

Ushbu yondashuvni amalga oshirishda o'quv va bilish jarayonlari o'quvchilarning bilish mexanizmlari, aqliy va xulq-atvor xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zaro muvofiqlashtiriladi va o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari hamkorlik va tanlov erkinligi tamoyillariga asoslanadi.

Shu boisdan Tarbiya darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari - o'quvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltiradi. Bu ta'lim o'qitish muhitining o'quvchi imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko'ra ta'lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim hamda tarbiya jarayonini to'laligicha o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta'minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihati ta'lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iboratdir. Tarbiya fani o'quv jarayonlarida bu turdagi ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta'limni tashkil etishda pedagoglardan har



bir o'quvchi imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirishni taqozo etiladi. Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-o'quvchi yoki o'quvchi-o'quvchi, o'quvchilar guruhi, o'quvchi - o'quvchilar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

O'z navbatida shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida kasbiy malakaga ega bo'lgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat olib borib, bilimi va tajribasini namoyon etadi. Bu esa ta'lim jarayonida aqlan rivojlangan, ma'naviy-axloqiy shakllangan, jismoniy yetuk, muayyan kasb-hunar asoslarini puxta egallagan, har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishga jiddiy talablar qo'yadi.

Xulosa o'rinda shuni aytish kerakki, Tarbiya fani dars jarayonlarini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida o'qitish, o'quvchilarda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi, ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag'batlantiradi, har bir o'quvchining ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, o'quv materialining samarali o'zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi, o'quvchilarga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi, o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzular bo'yicha fikr hamda munosabatni uyg'otadi, o'quvchilarda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarni shakllantiradi, o'quvchilarning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirilishini ta'minlaydi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Xalq so'zi gazetasi // 1997 yil 30-avgust
2. Основы личностно-ориентированного образования. / И.С.Якиманская. – М.: «Бином. Лаборатория знаний», 2011.
3. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-son qarori 2-xatboshi 1-bandi
4. Ахунова Г.Н., Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойихалаштириш ва режалаштириш. / Б.Ю.Ходиев тахрири остида. – Тошкент.: «Иқтисодиёт», 2009.
5. Sobirova, M., & Giyasova, M. (2019). Conventions and Traditions of Uzbekistan as a Spiritual Factor of Youth Education.



6. Abdullaeva, B., Yakubova, G., Mukhtarova, A., & Kodirova, A. (2020). Development of practical competencies of psychologists. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1143-1146.
7. Abdullaeva, B. S., Sobirova, M. A., Abduganiev, O. T., & Abdullaev, D. N. (2020). The specifics of modern legal education and upbringing of schoolchildren in the countries of the post-soviet world. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2706-2714.
8. Халиков, И., Собирова, М. А., & Бобожонова, Ш. О. (2016). Некоторые вопросы внешней политики республики Узбекистан по вопросам международного сотрудничества в области охраны природы. *Современные гуманитарные исследования*, (3), 117-120.
9. Собирова, М. А. (2013). Значение духовных ценностей в развитии национальной духовности. *Актуальные проблемы современной науки*, (5), 83-86.
10. Mamarasulovich, A. B. (2022). RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF HUMAN MORAL DEVELOPMENT. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 11, 154-163.
11. Mamarasulovich, A. B. (2022). RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL ASPECTS OF HUMAN MORAL DEVELOPMENT. *Conferencea*, 197-201.
12. Собирова, М. А. (2019). Формирование патриотической позиции молодежи на примерах героизма народов Узбекистана в годы Второй мировой войны. Эшелоны идут на восток. Эвакуация в Узбекистан в годы Великой Отечественной войны, 232.
13. Халиков, И., Собирова, М. А., & Муминов, Ш. (2016). МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ПО ЧРЕЗВЫЧАЙНЫМ СИТУАЦИЯМ. *Современные гуманитарные исследования*, (3), 121-126.
14. Халиков, И., Собирова, М., & Норбоев, А. (2015). ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ОРГАНОВ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ В СТРАНАХ СНГ И ИХ МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО. *Вопросы гуманитарных наук*, (5), 18-25.
15. Халиков, И., Собирова, М. А., & Норбоев, А. (2015). РОЛЬ ОРГАНОВ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ В СТРАНАХ СНГ ПО ВОПРОСАМ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ И ЛИКВИДАЦИИ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ ПРОИСШЕСТВИЙ. *Аспирант и соискатель*, (6), 92-97.



16. Собирова, М. А., Саматов, Х., & Никитченко, Г. В. (2015). ВОСПИТАНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКИСТАНА. Педагогические науки, (4), 46-48.
17. SOBIROVA, M. (2022). Milliy g'oya tarixi va nazariyasi. Scienceweb academic papers collection.
18. МАМАРАСУЛОВИЧ, А. В. (2020). ИНСОН ФАОЛИЯТИДА АХЛОҚИЙ МЕЪЁРЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕЗОНЛАРИ. Вестник Каракалпакского государственного университета им. Бердаха.
19. Абсатторов, Б. М. (2022). ТАСАВВУФ–ЎЗ-ЎЗИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА ҲАҚИҚАТНИ БИЛИШ ЙЎЛИ СИФАТИДА. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 167-173.
20. Абсатторов, Б. (2019). ШАХС МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ БАРКАМОЛЛИГИ МЕЗОНЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИНЛАРИ. Scienceweb academic papers collection.
21. МАМАРАСУЛОВИЧ, А. В. (2020). ИНСОН ФАОЛИЯТИДА АХЛОҚИЙ МЕЪЁРЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕЗОНЛАРИ. Вестник Каракалпакского государственного университета им. Бердаха.
22. Собирова, М. А. (2013). Значение духовных ценностей в развитии национальной духовности. *Актуальные проблемы современной науки*, (5), 83-86.
23. Собирова, М. А. (2019). Формирование патриотической позиции молодежи на примерах героизма народов Узбекистана в годы Второй мировой войны. Эшелоны идут на восток. Эвакуация в Узбекистан в годы Великой Отечественной войны, 232.
24. Абсатторов, Б. М. (2022). ТАСАВВУФ–ЎЗ-ЎЗИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА ҲАҚИҚАТНИ БИЛИШ ЙЎЛИ СИФАТИДА. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 167-173.
25. Sobirova, M., & Giyasova, M. (2019). Conventions and Traditions of Uzbekistan as a Spiritual Factor of Youth Education.
26. Kholmuminov, J. M. (2022). THE POSITION OF TASAVVUF AND IRFAN IN MAVERUNNAHR AND KHORASAN: IBN AL-ARABI AND ABDURAHMAN JAMI (A COMPARATIVE ANALYSIS). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(9), 76-92.



27. Холмўминов, Қ. (2021). ХУДО ВА ҲАСТЇ АЗ ДИДГОҲҲОИ АРАСТУ, ФОРОБИ ВА СИНО. Academic research in educational sciences, 2(10), 1115-1123.
28. Холмуминов, Д. М. (2021). ТАСАВВУФНИ ШАКЛЛАНТИРГАН МАНБАЛАР МУАММОСИ ҚИЁСИЙ ТАСАВВУФШУНОСЛИК ТАҲЛИЛИДА. Исследование Ренессанса Центральной Азии, 2(2).
29. Холмўминов, Ж. М. (2021). МОВАРОУННАҲР ФАЛСАФИЙ-ИРФОНИЙ МАКТАБЛАРИ ВА ИБН АЛ-АРАБИЙ ТАЪЛИМОТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 803-811.
30. Холмуминов, Д. (2021). ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИИ СУФИЗМА–ОДНА ИЗ ОСНОВ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ. Academic research in educational sciences, 2(11), 1145-1150.
31. Холмўминов, Ж. (2021). СОҲИБҚИРОН АМИР ТЕМУР ФАТҲЛАРИДА ҲАРБИЙ ТАКТИКА ВА ИСЛОМИЙ ҚАДРИЯТЛАР МУТАНОСИБЛИГИ. Academic research in educational sciences, 2(6), 538-553.
32. Kholmuminov, J., & Narzulla, J. (2020). INFLUENCE OF VAHDAT UL-WOOJUDE PHILOSOPHY (UNITY OF BEING) ON NAKSHBANDIYA DOCTRINES Transformation processes and special features. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(2), 297-307.
33. Nizomi, A. V. M., & Al-Khorazmi, K. A. O. (2022). Sufism as a way of self-implementation and knowledge of the truth. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(11), 199-204.
34. Собирова, М. А. (2019). Формирование патриотической позиции молодежи на примерах героизма народов Узбекистана в годы Второй мировой войны. Эшелоны идут на восток. Эвакуация в Узбекистан в годы Великой Отечественной войны, 232.
35. Nizomi, A. V. M., & Al-Khorazmi, K. A. O. (2022). Sufism as a way of self-implementation and knowledge of the truth. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(11), 199-204.
36. Халиков, И., Собирова, М. А., & Муминов, Ш. (2016). МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ПО ЧРЕЗВЫЧАЙНЫМ СИТУАЦИЯМ. Современные гуманитарные исследования, (3), 121-126.



37. Mamarasulovich, A. B. (2022). RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF HUMAN MORAL DEVELOPMENT. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 11, 154-163.
38. Mamarasulovich, A. B. (2022). RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL ASPECTS OF HUMAN MORAL DEVELOPMENT. Conferencea, 197-201.
39. Sanakulov, A. N. (2019). MAINTENANCE OF THE WORLD OUTLOOK SECURITY IN THE INFORMATION SOCIETY. Социосфера, (4), 54-57.
40. Санакулов, А. Н. (2022, January). ВЫРАБОТКА ИНФОРМАЦИОННОГО ИММУНИТЕТА-КАК ЗАЛОГ ПОВЫШЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ ЛЮДЕЙ. In Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference (Vol. 2, No. 1).
41. Sanaqulov, A. N. Prospective Directions of Effective Use of Virtual Technologies in Increasing the Power of Youth. JournalNX, 897-903.
42. Халиков, И., Собирова, М., & Норбоев, А. (2015). ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ОРГАНОВ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ В СТРАНАХ СНГ И ИХ МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО. Вопросы гуманитарных наук, (5), 18-25.
43. Nizomi, A. B. M., & Al-Khorazmi, K. A. O. (2022). Sufism as a way of self-implementation and knowledge of the truth. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(11), 199-204.
44. Ҳақимов, А. О. (2017). ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛАРНИНГ ҚОНУН БИЛАН ҲИМОЯЛАНИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ. Научная дискуссия: вопросы юриспруденции, (5), 164-167.
45. Собирова, М. А., Саматов, Х., & Никитченко, Г. В. (2015). ВОСПИТАНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКИСТАНА. Педагогические науки, (4), 46-48.
46. Khakimov, A. (2021). THE ROLE OF POLITICAL AND LEGAL CULTURE IN ENSURING CIVIC RESPONSIBILITY IN SOCIETY. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.2 Historical sciences).
47. Nizomi, A. B. M., & Al-Khorazmi, K. A. O. (2022). Sufism as a way of self-implementation and knowledge of the truth. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(11), 199-204.
48. Mukhammadievich, K. J., Mamarasulovich, A. B., & Olimjanovich, X. A. (2022, December). THE POSITION OF AL-FARABI AND IBN SINA IN



THE CONTROVERSY OF THE HISTORY OF PHILOSOPHY AND SUFISM. In E Conference Zone (pp. 17-25).

49. Холмўминов, Ж. (2021). СОҲИБҚИРОН АМИР ТЕМУР ФАТҲЛАРИДА ҲАРБИЙ ТАКТИКА ВА ИСЛОМИЙ ҚАДРИЯТЛАР МУТАНОСИБЛИГИ. Academic research in educational sciences, 2(6), 538-553.
50. Kholmuminov, J., & Narzulla, J. (2020). INFLUENCE OF VAHDAT UL-WOOJUDE PHILOSOPHY (UNITY OF BEING) ON NAKSHBANDIYA DOCTRINES Transformation processes and special features. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(2), 297-307.
51. Ҳакимов, А. О. (2017). ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛАРНИНГ ҚОНУН БИЛАН ҲИМОЯЛАНИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ. Научная дискуссия: вопросы юриспруденции, (5), 164-167.
52. Холмуминов, Д. М. (2020). ВАХДАТ УЛ-ВУЖУД ТЕОЛОГИК ТАЪЛИМОТИ ВА НАҚШБАНДИЯ ТАРИҚАТИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС, 1(1).
53. Холмуминов, Д. М. (2020). УЧЕНИЯ НАКШБАНДИЯ И ФИЛОСОФИЯ «ВАХДАТ УЛ-ВУДЖУД»(ЕДИНСТВО БЫТИЯ). Qazaqtaný, 74.
54. Абсатторов, Б. М. (2022). ТАСАВВУФ–ЎЗ-ЎЗИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА ҲАҚИҚАТНИ БИЛИШ ЙЎЛИ СИФАТИДА. Gospodarka i Innowacje., 30, 167-173.

